Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdulfattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDAIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrux Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDYIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abdusalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDYIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATIONS SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Baxramovich	
INNOVATION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletaliyeva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
Suxrob G'aybullov	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	1427
Kasimova Gulyor Axmatovna, Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi	
INNOVATION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	1432
Atamatov Abduxalil Salomovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSİYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH.....	1437
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
TURIZM KLASSTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASSTERLARGACHA.....	1441
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi	
IPO O'TKAZISH BOSQICHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI TAHLILI.....	1446
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	1455
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1463
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
FORECASTING THE EFFICIENCY OF SOLID WASTE RECYCLING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	1467
Axmedov Sheramat Umurxojayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1472
Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi	
PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF ACCOUNTING AND AUDITING SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1477
Jumanazarov Ruzimurod, Rabbimov Elbek	
TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	1481
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
XORAZM VILOYATIDA SUV RESURSLARI TANQISLIGI VA TUPROQ DEGRADATSIYASINING MINTAQANING EKOLOGIK-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI.....	1486
Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHİYATINING HUDUDİY TAFOVUTLARI TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA (2021–2025)	1491
Yaqubov San'at Shonazarovich	
KICHIK VA O'RTA AGROBIZNESLARNING EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI	1501
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich	
WTO ACCESSION AND ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM VIETNAM AND KAZAKHSTAN	1507
J.Ya. Nurillaev	
MILLIY IQTISODIYOTDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISH MEXANIZMLARI	1513
Sodikov Zokir Rustamovich	
KRIPTOBIRJA AXBOROT TIZIMIDA SERVER YUKLAMASINI SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1519
Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna	



KRIPTOBIRJA AXBOROT TIZIMIDA SERVER YUKLAMASINI SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Email: nshoaxmedova@gmail.com

Annotatsiya. Kriptobirja axborot tizimlarida server yuklamasini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kriptoaktivlar savdosi real vaqt rejimida amalga oshiriladigan jarayon bo'lgani uchun tizimga keladigan buyurtmalar, tranzaksiya so'rovlari va API murojaatlari sezilarli yuklama hosil qiladi. An'anaviy yondashuvlarda server yuklamasi faqat umumiy texnik ko'rsatkichlar asosida baholangan bo'lsa, taklif etilgan yondashuv tizimga xos operatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga olib, tranzaksiya so'rovlarini avtomatlashtirilgan tekshiruv orqali taqsimlash va qo'shimcha resurslarni samarali yo'naltirish imkonini beradi. Bu kriptobirja tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi va foydalanuvchilar ma'lumotlarining xavfsizligini oshiradi.

Kalit so'zlar: kriptobirja, server yuklamasi, axborot tizimi, tranzaksiya jarayoni, bulut infratuzilmasi, avtomatlashtirilgan tekshiruv, real vaqt rejimi.

Abstract. This study explores methods for improving server load management mechanisms in cryptocurrency exchange information systems. Analysis shows that, since crypto trading operates in real-time, incoming orders, transaction requests, and API calls generate significant server load. Traditional approaches evaluate server load based only on general technical indicators, whereas the proposed approach considers system-specific operational metrics, automates transaction request verification, and optimally allocates additional resources. This ensures uninterrupted operation of the exchange system and enhances the security of users' data.

Key words: cryptocurrency exchange, server load, information system, transaction process, cloud infrastructure, automated verification, real-time processing.

Аннотация. В данной работе рассматриваются методы совершенствования механизмов управления нагрузкой серверов в информационных системах криптобирж. Анализ показал, что, поскольку торговля криптовалютой осуществляется в реальном времени, поступающие заказы, транзакционные запросы и API-вызовы создают значительную нагрузку на сервер. Традиционные подходы оценивают нагрузку на сервер только по общим техническим показателям, тогда как предложенный подход учитывает операционные метрики системы, автоматизирует проверку транзакций и эффективно распределяет дополнительные ресурсы. Это обеспечивает непрерывную работу биржевой системы и повышает безопасность данных пользователей.

Ключевые слова: криптобиржа, нагрузка сервера, информационная система, процесс транзакции, облачная инфраструктура, автоматизированная проверка, работа в реальном времени.

KIRISH

Kriptobirjalar zamonaviy moliya bozorlarining ajralmas qismi bo'lib, ularning samarali va barqaror ishlashi iqtisodiy jarayonlarning uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kriptoaktivlar savdosi real vaqt rejimida amalga oshiriladi, bu esa axborot tizimlaridan yuqori darajadagi tezlik, aniqlik va xavfsizlikni talab qiladi. Shu bilan birga, foydalanuvchilardan kelib tushadigan buyurtmalar, tranzaksiya so'rovlar va API murojaatlari tizimga sezilarli yuklama keltiradi. Ayniqsa, bozor faolligi oshgan va narxlar keskin o'zgarayotgan davrlarda server infratuzilmasi ustida yuklama oshadi, bu esa tizimning uzluksiz ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

An'anaviy yondashuvlarda server yuklamasi faqat protsessor bandligi, operativ xotira sarfi yoki tarmoq trafigi kabi umumiy ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Biroq, kriptobirja platformalarida bu yetarli emas, chunki yuklama ko'p hollarda tranzaksiya faolligi, savdo buyurtmalari soni va bozor ma'lumotlarining yangilanish tezligi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shu sababli server infratuzilmasini boshqarishda tizimga xos operatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga oladigan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Kriptobirja axborot tizimida server yuklamasini optimal boshqarish, tizim resurslarini oqilona taqsimlash va savdo jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash bo'yicha samarali yondashuvlarni aniqlash zarur. Bunda asosiy



e'tibor tizimning yuqori hisoblash talablariga javob bera oladigan mexanizmlar, avtomatlashtirilgan tekshiruv algoritmlari va bulut infratuzilmasidan oqilona foydalanish orqali tizimning barqarorligini oshirishga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kriptobirja axborot tizimlarida server yuklamasini samarali boshqarish masalasi so'nggi yillarda ilmiy va amaliy tadqiqotlarda katta e'tibor qaratilgan mavzu hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kriptoaktivlar savdosi real vaqt rejimida amalga oshiriladigan jarayon bo'lgani sababli, tizimning ishlash samaradorligi ko'p jihatdan server infratuzilmasining barqarorligiga va resurslardan oqilona foydalanishga bog'liq (Kuznetsov, 2023; Zhang, 2022).

Server yuklamasini monitoring qilish va boshqarishning an'anaviy yondashuvlari ko'pincha protsessor bandligi, operativ xotira sarfi va tarmoq trafigi kabi umumiy texnik ko'rsatkichlarga tayangan. Biroq, ko'plab tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, kriptobirja tizimlarida yuklama faqat ushbu indikatorlar bilan cheklanib qolmasdan, tranzaksiya faolligi, savdo buyurtmalari soni, API so'rovlarining intensivligi va bozor ma'lumotlarining yangilanish tezligi bilan ham chambarchas bog'liq (Smith, 2021; Ivanov, 2020). Shu bois, server holatini baholashda tizimga xos operatsion ko'rsatkichlarni hisobga oladigan yondashuvlar samaraliroq hisoblanadi.

Ko'p tadqiqotlarda yuqori faollik davrlarida server resurslarining optimal taqsimlanishi va bulut infratuzilmasidan oqilona foydalanish orqali tizimning barqaror ishlashini ta'minlash mumkinligi qayd etilgan (Lee, 2022). Masalan, tranzaksiyalarni avtomatlashtirilgan tekshiruv algoritmlari yordamida risk darajasiga qarab saralash tizim resurslaridan samarali foydalanishga va kechikishlarni kamaytirishga yordam beradi (Petrov, 2021). Shu bilan birga, muhim ma'lumotlarni markaziy himoyalangan serverlarda saqlash va faqat zarur jarayonlarni bulut infratuzilmasiga yo'naltirish xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Manbani kriptobirja axborot tizimlarida server yuklamasini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar amaliy va nazariy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: tizim infratuzilmasini monitoring qilish, yuklama parametrlarini baholash, tranzaksiya jarayonlarini tahlil qilish va resurslarni oqilona taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kriptobirja platformalarining uzluksiz va barqaror ishlashi moliyaviy bozorlar samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Kriptobirja axborot tizimlarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan server infratuzilmasining barqaror ishlashiga va tizim yuklamasining optimal boshqarilishiga bog'liq. Kriptoaktivlar savdosi real vaqt rejimida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, unda foydalanuvchilarning savdo buyurtmalari, tranzaksiya so'rovlari, bozor ma'lumotlari yangilanishi va API orqali yuboriladigan ko'plab so'rovlar bir vaqtning o'zida tizimga kelib tushadi. Ayniqsa, savdo faolligi keskin oshadigan davrlarda, masalan, kriptoaktivlar narxining keskin o'zgarishi yoki bozorda narxning yuqori harakatchanligi yuzaga kelgan paytlarda, server infratuzilmasiga tushadigan yuklama sezilarli darajada ortadi. Bunday sharoitda kriptobirja axborot tizimining asosiy komponentlari — savdo buyurtmalarini moslashtirish moduli, ma'lumotlar bazasi, tranzaksiyalarni qayta ishlash servislari hamda foydalanuvchi interfeysi bilan bog'liq xizmatlar — yuqori hisoblash resurslarini talab qiladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, server yuklamasi ma'lum chegaradan oshib ketganda tizimda bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, foydalanuvchilar tomonidan yuborilgan buyurtmalarni qayta ishlash vaqti uzayadi, tranzaksiya so'rovlari navbatda to'planib qoladi, API javob tezligi pasayadi hamda ayrim holatlarda tizimning alohida modullari vaqtincha javob bermasligi kuzatiladi. Natijada savdo jarayonlarining uzluksizligi buziladi va foydalanuvchilar uchun xizmat sifati pasayadi. Ayniqsa, yuqori tezlikda ishlaydigan algoritmik savdo strategiyalarida bunday kechikishlar sezilarli moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli kriptobirja axborot tizimlarida server yuklamasini doimiy monitoring qilish va uni barqaror boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim texnik vazifalardan biri hisoblanadi.


An'anaviy yondashuvlarda server yuklamasi asosan protsessor bandligi, operativ xotira sarfi yoki tarmoq trafikining umumiy ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Biroq, kriptobirja platformalarida tizim yuklamasini faqat ushbu umumiy texnik ko'rsatkichlar asosida baholash yetarli darajada aniq natija bermaydi. Chunki kriptobirja tizimlarida yuklama ko'p hollarda tranzaksiya faolligi, savdo buyurtmalari soni, bozor ma'lumotlarining yangilanish tezligi hamda API orqali kelayotgan tashqi so'rovlar intensivligi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shu sababli server infratuzilmasi holatini baholashda tizim faoliyatiga xos bo'lgan operatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga oluvchi yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kriptobirja axborot tizimida savdo jarayonlari real vaqt rejimida amalga oshiriladi va tizimga kelib tushadigan buyurtmalar soni bozor holatiga qarab keskin o'zgarishi mumkin. Masalan, kriptoaktiv narxining tez o'zgarishi



yoki bozor aktivlarining narxi keskin ortishi natijasida foydalanuvchilar bir vaqtning o'zida ko'plab savdo buyurtmalarini yuboradi. Bunday vaziyatda tizimga kelayotgan tranzaksiya so'rovlar, API murojaatlari hamda bozor ma'lumotlari yangilanishi soni keskin ortadi. Natijada serverlarning hisoblash resurslari tezda band bo'lib, savdo buyurtmalarini qayta ishlash jarayonida tirbandlik yuzaga kelishi mumkin. Bu holatda buyurtmalarni tasdiqlash va bajarish vaqti uzayadi, ayrim so'rovlar navbatda to'planib qoladi hamda foydalanuvchi interfeysining javob berish tezligi pasayadi.

Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida kriptobirja tizimida barcha muhim ma'lumotlar bulut infratuzilmasiga ko'chirilmaydi. Foydalanuvchi hisoblari, tranzaksiya registrlari hamda savdo operatsiyalarining asosiy ma'lumotlari himoyalangan markaziy ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Ushbu ma'lumotlar bazasi alohida himoyalangan serverda joylashadi va unga faqat savdo tizimining asosiy modullari kirish huquqiga ega bo'ladi. Shuningdek, raqamli aktivlar bilan bog'liq maxfiy ma'lumotlar, xususan, kriptohamyon kalitlari alohida himoyalangan muhitda saqlanadi va ular tashqi hisoblash serverlari bilan bevosita bog'lanmaydi (1-rasm).



1-rasm. Kriptobirja axborot tizimida tranzaksiya so'rovlarini avtomatlashtirilgan tekshirish asosida risk baholash modeli¹


1 Muallif ishlanmasi



Server yuklamasi oshgan holatlarda tizim avvalo so'rovlarni serverlar o'rtasida taqsimlaydi, zarur bo'lsa, qo'shimcha hisoblash resurslarini ishga tushiradi va faqat eng zarur jarayonlarni vaqtincha bulut infratuzilmasiga yo'naltiradi. Bunda asosiy ma'lumotlar bazasi va xavfsizlik modullari o'z joyida saqlanadi.

Ushbu yondashuv kriptobirja axborot tizimida tirbandliklarning oldini olish, savdo operatsiyalarining uzluksiz bajarilishini ta'minlash hamda foydalanuvchilarning moliyaviy ma'lumotlari xavfsizligini yuqori darajada saqlab qolish imkonini beradi.

Avtomatlashtirilgan tekshiruv algoritmini kriptobirja axborot tizimiga joriy etish natijalari tizimning o'tkazuvchanligi hamda xizmat ko'rsatish sifati darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini berganini ko'rsatadi. An'anaviy yondashuvda barcha tranzaksiya so'rovlari yagona ketma-ket tekshiruv jarayonidan o'tkazilishi sababli tizim resurslaridan foydalanish samaradorligi pasayib, hatto xavf darajasi past bo'lgan operatsiyalar ham ortiqcha vaqt davomida tekshiruv navbatida qolib ketishi kuzatilgan. Bunday holat kriptobirja axborot tizimida tranzaksiya jarayonlarining kechikishiga, foydalanuvchi so'rovlarining yig'ilib qolishiga hamda umumiy xizmat ko'rsatish tezligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli kriptobirja infratuzilmasida tranzaksiya so'rovlarini tekshirish jarayonini soddalashtirish va tizim resurslarini oqilona taqsimlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Tranzaksiya qabul qilish moduli²

Agar savdo faolligi yanada oshib, mavjud server infratuzilmasi yuklamani to'liq qoplay olmasa, tizim qo'shimcha hisoblash resurslarini ishga tushiradi. Zarur holatlarda hisoblash jarayonlarining ayrim qismlari vaqtincha bulut infratuzilmasiga yo'naltiriladi. Bunda asosan foydalanuvchi so'rovlarini qabul qilish, API xizmatlari va bozor ma'lumotlarini uzatish bilan bog'liq jarayonlar bulut serverlarida qayta ishlanadi. Bu esa asosiy savdo serverlariga tushadigan yuklamani kamaytiradi va tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida kriptobirja tizimida barcha muhim ma'lumotlar bulut infratuzilmasiga ko'chirilmaydi. Foydalanuvchi hisoblari, tranzaksiya registrlari hamda savdo operatsiyalarining asosiy ma'lumotlari himoyalangan markaziy ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Ushbu ma'lumotlar bazasi alohida himoyalangan serverda joylashadi va unga faqat savdo tizimining asosiy modullari kirish huquqiga ega bo'ladi. Shuningdek, raqamli aktivlar bilan bog'liq maxfiy ma'lumotlar, xususan, kriptohamyon kalitlari alohida himoyalangan muhitda saqlanadi va ular tashqi hisoblash serverlari bilan bevosita bog'lanmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kriptobirja axborot tizimlarida server yuklamasini samarali boshqarish mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Kriptoaktivlar savdosi real vaqt rejimida amalga oshishi, foydalanuvchi buyurtmalari va tranzaksiya so'rovlarining keskin o'zgarishi server resurslariga sezilarli yuklama tushishini aniqlaydi. Natijada tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlash, foydalanuvchi so'rovlarini kechiktirmasdan qayta ishlash va API xizmatlarining samaradorligini saqlash muhim vazifa hisoblanadi.

2 Muallif ishlanmasi



Protessor bandligi, operativ xotira sarfi yoki tarmoq trafigi kabi umumiy texnik ko'rsatkichlarga tayanish kriptobirja tizimlarining real yuklamasini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli tizim faoliyatiga xos bo'lgan operatsion ko'rsatkichlar: tranzaksiya faolligi, savdo buyurtmalari soni, bozor ma'lumotlarining yangilanish tezligi va API so'rovlar intensivligi ham hisobga olinishi zarur.

Server yuklamasi oshgan hollarda tizimning samarali ishlashi uchun quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi: so'rovlarni serverlar o'rtasida taqsimlash, zarur hollarda qo'shimcha hisoblash resurslarini ishga tushirish, shuningdek, muhim jarayonlarning faqat eng zarur qismini bulut infratuzilmasida bajarish. Shu bilan birga, asosiy ma'lumotlar bazasi va xavfsizlik modullari doimiy himoyalangan holda saqlanishi foydalanuvchilarning moliyaviy ma'lumotlari xavfsizligini yuqori darajada ta'minlaydi.

Avtomatlashtirilgan tekshiruv algoritmlarini joriy etish tizimning xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi, tranzaksiya jarayonlaridagi kechikishlarni kamaytiradi va resurslardan oqilona foydalanishga imkon yaratadi. Shu tarzda takomillashtirilgan server boshqaruvi mexanizmlari kriptobirja axborot tizimlarida tirbandliklarning oldini olish, savdo jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash va foydalanuvchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash imkonini beradi.

Kriptoaktivlar ochiq blokcheynlarda ishlaydigan virtual birliklardir. Ularni ikkita keng toifaga bo'lish mumkin: tangalar va tokenlar. Tangalar raqamli aktivlar tokenlardan farqli o'laroq, tarmoqning funksionalligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ochiq blokcheynlarning ajralmas elementi hisoblanadi.

Kriptobirjalar yuqori darajadagi texnologik infratuzilmaga, avtomatlashtirilgan savdo mexanizmlariga va murakkab boshqaruv modellariga asoslanadi. Xalqaro amaliyotda kriptobirjalarning asosiy e'tibori tranzaksiyalar tezligi, tizim barqarorligi, xavfsizlik va foydalanuvchilar uchun qulay xizmatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Antonopoulos, A. M. (2017). *Mastering Bitcoin: Programming the Open Blockchain*. O'Reilly Media.
2. Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System*.
3. Kshetri, N. (2021). *Blockchain and Cryptocurrency Regulation and Governance*.
4. Hwang, K., Fox, G., & Dongarra, J. (2018). *Distributed and Cloud Computing: From Parallel Processing to the Internet of Things*. Morgan Kaufmann.
5. Zheng, Z., Xie, S., Dai, H., Chen, X., & Wang, H. (2017). *An Overview of Blockchain Technology: Architecture, Consensus, and Future Trends*. Proceedings of IEEE International Congress on Big Data, 557–564.
6. Gudgeon, L., Moreno-Sanchez, P., Roos, S., McCorry, P., & Meiklejohn, S. (2020). *The Decentralized Financial System: Challenges and Opportunities*. IEEE Security & Privacy, 18(4), 34–45.
7. Shabalin, A., & Frolov, A. (2019). *Performance Optimization in Cryptocurrency Exchange Systems*. Journal of Systems Architecture, 98, 25–36.
8. Microsoft Azure. (2022). *Azure Architecture Guide for High-Performance Trading Systems*.
9. Amazon Web Services. (2022). *Best Practices for Building High-Performance, Scalable Applications*.
10. IBM Cloud. (2021). *Blockchain Security and Scalability Guidelines*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
